

**XORIJIY DAVLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI
ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH
JINOYATI UCHUN JAVOBGARLIK**

Ibodillayev Doston Abduvayt o‘g‘li

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

dostonibodillayev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada xorijiy davlatlarda transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyati uchun javobgarlik bayon etilgan. Shuningdek, muallif maqolada yo‘l-transport hodisalarini oldini olishda xalqaro standartlar ayrim talablariga to‘xtalib o‘tgan.

***Kalit so‘zlar:** yol-transport hodisasini oldini olish, Germaniya “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni, Shvetsiya “Yo‘l harakati qoidalarini”, Norvegiyada yo‘llarda xavfsizlikni ta‘minlash, Estoniya “Yo‘l harakati qoidalarini”.*

**RESPONSIBILITY FOR VIOLATION OF TRAFFIC SAFETY
RULES OR OPERATION OF VEHICLES
IN FOREIGN COUNTRIES**

ABSTRACT

This article sets out the responsibility for violation of traffic safety rules or operation of vehicles in foreign countries. Also in the article, the author dwelt on some of the requirements of international standards for the prevention of road accidents.

***Keywords:** prevention of road accidents, German law on road safety, Swedish “rules of the road”, road safety in Norway, Estonian “rules of the road”.*

Davlatning jinoyat huquqiy siyosatini amalga oshirish uchun boshqa mamlakatlarning jinoyat qonunchiligini, uning xususiyatlari va ijobiy tomonlarini o'rganish muhimdir. Xorijiy mamlakatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish muammoning mohiyatini yanada aniqroq tushunish, jinoyatlar va boshqa qilmishlarning jazoga loyqligini tavsiflash, milliy qonunlarimizni takomillashtirish imkonini beradi. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan qonun hujjatlarini to'g'ri tushunish uchun xorijiy mamlakatlarda yo'l harakati va uning xavfsizligini huquqiy tartibga solish asoslarini bilish talab etiladi.

Transport vositalari harakati va ulardan foydalanish xavfsizligini ta'minlash masalalarini tartibga solishga bag'ishlangan Yo'l harakati to'g'risidagi qonunlar Avstriya, Bolgariya, Buyuk Britaniya, Daniya, Ukraina, Estoniyada amal qiladi. Ispaniyada shunga o'xshash hujjat "Mexanik transport vositalarining harakati hamda yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi asosiy qonun" deb ataladi. Bolgariya, Daniya, Ispaniya, Ukraina va Finlyandiyada yo'l harakati to'g'risidagi qonun ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi birdan-bir hujjat hisoblanadi. Norvegiyada yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash masalalari "Yo'l harakati to'g'risida"gi qonun bilan bir qatorda, 1936 yil 16 iyulda qabul qilingan "Muayyan kasblar egalarining o'zlarini tiyishlari shart bo'lgan faoliyatlar to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Unda muayyan kasb egalari, shu jumladan tijorat transport vositalarining haydovchilari uchun yo'lga chiqishdan oldin kamida 8 soatgacha bo'lgan muddat mobaynida alkogol, boshqa mast qiluvchi ichimliklar yoki giyohvandlik vositalari iste'mol qilishdan o'zini tiyishi talabi belgilangan.

Germaniyada "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi qonundan tashqari, "Yo'l harakati qoidalarining buzilishi to'g'risida"gi qonun, Yo'l harakatida ishtirok etishga ruxsat berish to'g'risidagi qoidalar kodeksi (u haydovchiga va transport vositalariga taalluqli bo'lgan masalalarni tartibga soladi) amal qiladi. Yo'l qoidalarini buzganlik uchun jarimalar tizimi keng ko'lamli "Jarimalar katalogi"ga birlashtirilgan. Unda

yoʻlda harakatlanish chogʻida yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan koʻp sonli qoidabuzarliklar ancha mufassal tartibga solingan.

Shvetsiyada quyidagi masalalarni tartibga soluvchi alohida qonunlar amal qiladi: Yoʻl harakati qoidalarining jiddiy buzilishi (transport vositalarini mast holda yoki haydovchilik guvohnomasisiz boshqarish); haydovchilarni tayyorlash va haydovchilik guvohnomasini olib qoʻyish tartibi; avtomobil haydovchilarini tayyorlovchi maktablarga qoʻyiladigan asosiy talablar; avtomobilni qoʻyish qoidalarini buzganlik uchun jarimalar; transport vositalarini majburiy evakuatsiya qilish; xavfli yuklarni tashish va h.k.

Estoniyada har bir turdagi transport (jamoat transporti, yuk transporti va h.k.)ga nisbatan alohida qonunlar, shuningdek yoʻllar toʻgʻrisidagi qonun qabul qilingan. Bundan tashqari, quyidagi masalalar ham alohida qonunlar bilan tartibga solinadi: maʼmuriy huquq qoidalarini buzish; transportda sugʻurta; yoʻllarning egalari yoki boshqaruvchilari va yoʻl harakati ishtirokchilarining yoʻllarni saqlash, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish uchun javobgarligi; transport vositalarini qoʻyish joylari.

Ayrim mamlakatlar faqat yoʻl harakati qoidalarini qabul qilish bilan cheklangan. Odatda, bu qoidalar turli huquqiy hujjatlarda belgilanadi.

Yoʻl belgilariga oid masalalar, Mexanik transport vositalari toʻgʻrisidagi qonunning qoʻllanilishi (Avstriya), avtomobillarni roʻyxatga olish qoidalarini va bu ish bilan bogʻliq hisob yuritish hujjatlari, texnik koʻrikdan oʻtkazish, svetofor orqali tartibga solish, yoʻl qurilishi, yoʻl belgilari (Bolgariya), mexanik transport vositalarini roʻyxatga olish, ularni jihozlash, haydovchilik guvohnomalarini berish, haydovchilarni tayyorlash, yoʻl belgilari va signallari toʻgʻrisidagi qoidalar (Daniya) alohida tartibga solinadi.

Shu oʻrinda Fransiyaning yoʻl harakati xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy tizimi alohida diqqatga sazovordir. Bu mamlakatda Yoʻl harakati qoidalarini (5 jilddan iborat), Avtomobil yoʻllarini saqlash va ularga texnik xizmat koʻrsatish qoidalarini, yoʻl belgilari va signallari toʻgʻrisida idoraviy yoʻriqnoma va Jinoyat kodeksi asosiy

hujjatlar hisoblanadi. Fransiya “Yo‘l harakati qoidalari”ning qonun chiqaruvchi va tartibga soluvchi qismlarga ajratilgan besh jildida yo‘l harakati bilan bog‘liq barcha masalalarni tartibga soluvchi qoidalar majmui mustahkamlangan.

Chet mamlakatlar qonunchiligida asosiy urg‘u yo‘l harakati qoidalarini buzuvchilarning moddiy javobgarligiga beriladi. Bunda yirik summalarga jarimalar bilan bir qatorda, avtotransport vositalarini musodara qilish, haydovchilik guvoohnomasidan mahrum etish kabi choralar ham qo‘llaniladi.

So‘nggi yillarda ayrim mamlakatlar qonunchiligida yo‘l harakati qoidalarini buzishning yangi turlari paydo bo‘ldi. Ular, eng avvalo, transport vositasini boshqarish paytida telefon orqali so‘zlashuvlar bilan bog‘liq. Rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida transport vositasini boshqarish paytida “hands-free” garniturisiz mobil telefon orqali so‘zlashish taqiqlangan. AQSH va Kanadaning ayrim shtatlari, Quvayt, Yevropada Shvetsiya hozircha bundan mustasno. Avstraliya, Shveysariya kabi mamlakatlarda transport vositasini boshqarish paytida telefon orqali so‘zlashish butunlay taqiqlangan. Avstraliyaning ayrim shtatlarida, Belgiya, Keniya, Malayziya va Singapur kabi mamlakatlarda bu huquqbuzarlik uchun yirik summadagi jarimalar bilan bir qatorda qamoq jazosi ham nazarda tutilgan. Ispaniyada transport vositasini boshqarish paytida mobil telefon aloqasi orqali so‘zlashish uchun “hands-free” garniturdan foydalanish ham taqiqlangan. Faqat ovoz chiqaradigan qurilmalardan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi. Taqiqlar avtomobilni boshqarish paytida SMS xabarlar yuborishga ham tatbiq etiladi. Mazkur harakatlar “hands-free” garniturisiz uyali telefon orqali so‘zlashishga tenglashtiriladi. Bolgariyada munitsipal transportda haydovchilar bilan bir qatorda, yo‘lovchilar ham mobil telefon orqali so‘zlashishlari taqiqlangan. Bu hol shu bilan izohlanadiki, Germaniya va Chexiyada ishlab chiqarilgan avtobuslar va tramvaylar elektron qurilmasining ishi uyali telefonlardan tarqaluvchi radioto‘lqinlar ta’sirida izdan chiqishi, bu esa yo‘l-transport hodisasiga olib kelishi mumkin.

Avstraliya, Belarus, Braziliya, Germaniya, Kipr, AQSHda rulda chekishni taqiqlovchi qonun loyihalari muhokama qilinmoqda. To‘g‘ri, Avstraliyada bu taqiq

faqat avtomobil salonida 12 yoshga to'lmagan bola ketayotgan hollar uchun belgilangan. Buyuk Britaniyada avtomobilni boshqarish paytida chekish uchun 30 funt miqdorida jarima solinadi. Boshqa davlatlar tajribasini o'rganish har bir mamlakatga o'z jinoyat qonunchiligini yanada samarali ishlab chiqish imkonini beradi. Fransuz huquqshunosi Mark Aksel bu xususda so'z yuritir ekan, chet mamlakatlar huquqini o'rganish "huquqshunosga o'z mamlakati huquqini yanada yaxshiroq bilish uchun imkoniyat yaratadi, zero mazkur huquqning o'ziga xos jihatlari uni boshqa tizimlar bilan taqqoslaganda yanada yorqinroq ko'zga tashlanadi. Taqqoslash huquqshunos olimni o'z huquqini juda yaxshi bilganda ham olish mumkin bo'lmagan dalillar va g'oyalar bilan qurollantirishga qodir", deb, to'g'ri ta'kidlaydi.

N.Ye.Krilova, A.V.Serebrennikova fikriga ko'ra, huquqiy tizimni ham keng, ham tor ma'noda o'rganish o'rinli bo'ladi. Huquqiy tizim (tor ma'noda) – bu milliy huquqning muayyan strukturaga ega bo'lgan, huquq normalari, huquqiy institutlar va huquq tarmoqlarini o'z ichiga olgan tizimi. Keng ma'nodagi huquq tizimi huquqiy hodisalarning uch guruhini: 1) yuridik normalar, institutlar, huquqiy tartibga solish tarmoq (soha)lari (normativ tomon); 2) huquqiy muassasalar majmui (tashkiliy tomon); 3) mazkur jamiyatga xos bo'lgan huquqiy qarashlar, tasavvurlar, g'oyalar majmui (huquqiy madaniyat)ni o'z ichiga oladi.

Huquqiy oilalar tipologiyasi haqida gapirganda, shuni qayd etib o'tish lozimki, fanda ularni tasniflashga nisbatan turli xil yondashuvlar mavjud.

Har bir huquqiy oilaning xususiyati shundaki, unga turli (yuridik, tarixiy, diniy va h.k.) manbalarning muayyan majmui xosdir.

Umumiy huquq (anglosakson huquqi) tizimi shu bilan tavsiflanadiki, bu yerda sud pretsedenti huquq manbai sifatida tan olinadi. Tor ma'noda sud pretsedentlari to'plami sifatidagi umumiy huquq statut huquqiga qarshi turadi.

Roman-german huquqiy oilasida yozilgan huquq, ya'ni davlatning qonun hujjatlarida qayd etilgan yuridik normalar asosiy huquq manbai hisoblanadi. Bu yerda sudya boshqa sud ilgari qabul qilgan qarorga rioya qilishga majbur emas, oliy sud va

(yoki) konstitutsiyaviy sud amaliyoti bundan mustasno. Biroq bu holda ham oliy sud instansiyalari o‘z qarorlari bilan yangi normalar yaratishga haqli emaslar, ular faqat normativ-huquqiy hujjatlarda mavjud normalarni sharhlashlari mumkin.

Yo‘l harakati xavfsizligiga tajovuz qilganlik uchun javobgarlik masalalarini tartibga soluvchi normalar barcha mamlakatlarda belgilangan. Ayni paytda tarixiy rivojlanish xususiyatlariga ko‘ra har bir mamlakatda qonun chiqaruvchi mazkur ijtimoiy xavfli qilmish uchun javobgarlikni huquqiy tartibga solishga nisbatan turlicha yondashadi.

Demak, xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishda aksariyat xorijiy mamlakatlarda mamlakatimiz jinoyat qonunchiligidan farqli ravishda insonning sog‘lig‘iga shikast yetkazish me‘zoni bilan bir qatorda mulkiy zarar yetkazish me‘zoni ham inobatga olingan. Bizningcha, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida ham tahlil qilinayotgan jinoyat uchun javobgarlik masalasini ko‘rib chiqishda shaxsning mulkiga yetkazilgan ziyonni ham jinoyat-huquqiy muhofaza doirasiga kiritish maqsadga muvofiq. Jinoyat qonunchiligiga shu kabi tuzatishlarning kiritilishi, o‘ylaymizki, jinoyat oqibatlarining kafolatli bartaraf etilishiga xizmat qilgan bo‘lar edi.

REFERENCES

1. Global status report on road safety 2018. Geneva: World Health Organization; 2018. Licence: CC BYNC-SA 3.0 IGO.
2. WHO Global health estimates 2014 summary tables: Deaths by cause, age and sex, by WHO region, 2000–2012 (http://www.who.int/healthinfo/global_burden_disease/en/, accessed 01 October 2015).
3. High-level group on road safety consultation on the development of the injuries strategy: next steps in the development of the injuries strategy. Brussels: European

Commission; 2012 (http://ec.europa.eu/transport/road_safety/pdf/injury_next_steps.pdf, accessed 03 November 2015).

4. A cohesive strategy for alcohol, narcotic drugs, doping and tobacco (ANDT) policy. Ministry of Health and Social Affairs, Sweden; 2011 [S.2011.02] (<http://www.government.se/information-material/2011/05/a-cohesive-strategy-for-alcohol-narcotic-drugs-doping-and-tobacco-andt-policy/> accessed 01 October 2015).

5. Global status report on road safety 2015. Geneva: World Health Organization; 2015 (http://www.who.int/violence_injury_prevention/road_safety_status/2015/en/, accessed 03 November 2015). Имеется резюме на русском языке (http://www.who.int/violence_injury_prevention/road_safety_status/2015/Summary_GSRRS2015_RUS.pdf?ua=1, по состоянию на 4 декабря 2015 г.).